



WAYS OF ORGANIZING THE EDUCATIONAL ACTIVITIES OF THE ORGANIZATION OF PRESCHOOL EDUCATION ON THE BASIS OF A SYSTEMATIC APPROACH

Dilshoda B. Khursanova

Master's student

*Pedagogical Institute of Termez State University
Termez, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: play, mental education, moral education, aesthetic education, role play, plot role play

Abstract: This article examines the use of games in preschool, the role of play in the lives of children.

Received: 05.06.22

Accepted: 07.06.22

Published: 09.06.22

МАКТАБГАЧА ТА`ЛИМ ТАШКИЛОТИ ТАРБИЯЛАНУВЧИЛАРИ О`YIN FAOLIYATINI TIZIMLI YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL ETISH YO`LLARI

Dilshoda B. Xursanova

Magistratura talabasi

*Termiz davlat universitetining pedagogika instituti
Termiz, O`zbekiston*

МАҚОЛА НАҚИДА

Kalit so‘zlar: o‘yin, aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya, estetik tarbiya, rolli o‘yin, syujetli rolli o‘yin

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta`lim muassasalarida o‘yinlardan foydalanish, o‘yining bola hayotidagi o‘rni masalalari yoritilgan.

ПУТИ ОРГАНИЗАЦИИ ИГРОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ВОСПИТАННИКОВ ДОШКОЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ НА ОСНОВЕ СИСТЕМНОГО ПОДХОДА

Дилишода Б. Хурсанова

студент магистратуры

*Педагогический институт Термезского государственного университета
Термез, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: игра, умственное воспитание, нравственное воспитание, эстетическое воспитание, сюжетно-ролевая

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы использования игр в дошкольных учреждениях, роль игры в

KIRISH

O‘yin inson o‘zligining namoyon bo‘lishi, uning takomillashuv usulidir. O‘yin kattalar hayotida muayyan o‘rin tutar ekan, u bolalar uchun alohida ahamiyatga egadir. Uni «bolalikning hamrohi» deb atash qabul qilingan. U maktabgacha yoshdagi bolalar hayotining asosiy mazmunini tashkil etadi. Mehnat va ta`lim bilan uzviy aloqada bo‘lgan holda etakchi faoliyat sifatida namoyon bo‘ladi. Bola shug‘ulanadigan ko‘pchilik jiddiy ishlar o‘yin shaklida bo‘ladi. O‘yinda shaxsdagi barcha mavjud jihatlar ishga tushadi: bola harakat qiladi, gapiradi, idrok etadi, o‘ylaydi. O‘yin tarbiyaning muhim vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. O‘yin qadim zamonlardan beri pedagog, psixolog, faylasuf, etnograf, san`atshunos olimlar diqqatini o‘ziga tortib kelgan bo‘lib, jamiyat hayotida mehnatdan keyin turadi va uning mazmunini belgilaydi. Ibtidoiy jamoa qabilalari o‘z o‘yinlarida ovchilik, urush, dexqonchilik ishlarini aks ettirganlar. Masalan, o‘sha davrdagi ba`zi qabilalarning sholi sepish jarayoni o‘yinlar bilan juda katta tantana qilib amalga oshirilar edi.

ASOSIY QISM

Ya.A. Komenskiy, K.D. Ushinskiy, A.S. Makarenko, P.F. Lestgaflarning g’oyalari hozirgi zamon bolalar o‘yinlari nazariyasi uchun ham ahamiyatlidir. «Bolalar o‘yini ko‘p asrlik tarixga ega-deb yozgan edi K.D.Ushinskiy, - insonning o‘zi tomonidan ishlab chiqilgan qudratli tarbiyaviy vosita va shuning uchun ham unda inson tabiatining haqiqiy ehtiyoji ifodalangan».

Yan Amos Komenskiy o‘yinni bola faoliyatining, uning tabiatini va mayllariga to‘g’ri keladigan zarur shakli deb hisoblardi. Uning fikricha o‘yin – bolaning barcha qobiliyat ko‘rinishlari rivojlanadigan jiddiy aqliy faoliyatdir, o‘yinda borliq, dunyo haqidagi tasavvurlar doirasi kengayadi va boyidi, nutq rivojlanadi. Bola o‘yin davomida tengqurlari bilan do‘splashadi. Ya.A. Komenskiy o‘yinga quvnoq bolalik va bolani uyg‘un rivojlanish sharti sifatida qarar ekan, kattalarga bolalar o‘yinlariga e’tiborli munosabatda bo‘lishni, ularga oqilona rahbarlik qilishni masalahat bergen edi.

P.F. Lestgaft bolalar o‘z o‘yinlarida tevarak-atrofdan olgan tasurotlarini aks ettiradilar, deydi. Bunday faoliyat bolaning rivojlanishida katta ahamiyatga egadir.

V.G. Plexanov san’atning kelib chiqishini tadqiq qilayotganda bolalar o‘yinlariga e’tibor qiladi. Uning fikricha, kishilik tarixida o‘yinlar san’at kabi mehnat paydo bo‘lgandan so‘ng va uning asosida vujudga kelgan. U, - «O‘yinda kattalarning mehnat faoliyati o‘z aksini topadi, o‘yin mehnat farzandi, u mehnatdan oldin paydo bo‘lgan hodisadir», - deb yozgan edi. Jamiyat hayotida mehnat jarayonida bolalar kattalar mehnatiga taqlid qilish orqali o‘ynaydilar, xuddi shu o‘yin keyinchalik bolalarni mehnat faoliyatiga tayyorlashda muhim bosqich bo‘lib hisoblanishini asoslab, o‘yinni obrazli, hayotni haqqoniy aks ettiruvchi jarayondir, degan edi V.G. Plexanov. P.F. Lesgaft «Bolaning dastlabki o‘yini tevarak – atrofdagi voqeа - hodisalarga taqlid kiladi, o‘yin ijtimoiy voqelikni aks ettiradi», - deb izohlagan edi. Buyuk psixolog D.V. Elkoniн o‘yining kelib chiqishida yangi g‘oyani

ilgari suradi jamiyatning dastlabki taraqqiyotidayok bolaning kattalar hayoti va mehnatida ishtirok etishi bolalarning mehnat qilishlari uchun qulay o‘yinchoq mehnat qurollari ishlab chiqilgan. O‘yinchoq qurollar paydo bo‘lishi natijasida rolli o‘yinlar paydo bo‘ladi. D.V. Elkonin kattalar mehnatida ishtirok etish orqali bolada mehnat qilishga intilish hissini uyg‘otish zarurligi g‘oyasini isbotlab bergen.

Shunday qilib o‘yining ijtimoiy voqeа ekanligini, o‘yinda tevarak-atrofdagi borliq aks ettirilishini ilg’or olim va pedagoglar o‘zlarining kuzatish va ilmiy tadqiqotlari orqali isbotlab berdilar.

Shu tariqa o‘yin tarixiy taraqqiyot jarayonida mehnat faoliyati natijasida paydo bo‘lgan ijtimoiy faoliyatdir; o‘yin doimo haqiqiy hayotni aks ettiradi. Demak, ijtimoiy hayot o‘zgarishi bilan uning mazmuni ham o‘zgaradi. O‘yin ma`lum maqsadga yo‘naltirilgan ongli faoliyat bo‘lib, uning mehnat bilan ko‘p umumiyligi bor va yoshlarni mehnatga tayyorlashga xizmat qiladi. O‘yin faoliyati asosida boladagi o‘quv faoliyati rivojlanadi, bola qanchalik yaxshi o‘ynasa, u mакtabda shunchalik yaxshi o‘qiydi.

Tarbiyachilar bolalar o‘yiniga rahbarlik qilishda quyidagilarga rioya qilishi lozim.

1. o‘yin bilan mehnat o‘rtasida to‘g’ri munosabat o‘rnatish
2. o‘yinda bolalarning bo‘lajak mehnat axliga xos bo‘lgan jismoniy va ruhiy sifatlarini tarbiyalash.

Psixologlar adabiyotlar tahliliga tayanib maktabgacha yoshdagи bolalarning o‘ziga xos xususiyatlari qatoriga quyidagilarni kiritadilar:

- 1) bola odamlarning faoliyati, ularning predmetlarga munosabati va o,,zaro muomalasiga qiziqadi;
- 2) bola rolli o‘yinda atrofdagi vogelikning eng tashqi, ifodali, jo‘shqin xistuyg`uli jihatlarini aks ettiradi;
- 3) rolli o‘yinda bola kattalar bilan bir xil sharoitda, yagona zaminda yashayotganini his etgan holda o‘z istagini amaliyotga tadbiq qiladi;
- 4) kattalar hayoti va faoliyatiga kirish bolaning tasavvuri timsollari tariqasida namoyon bo‘lsa ham, umuman uning chinakam shaxsiy hayotida o‘chmas iz qoldiradi. O‘yining bola tarbiyasidagi asosiy roli bolalar muassasasi hayotini u bilan boyitishni talab etadi. Shuning uchun ham o‘yin bolalar hayotining kun tartibiga doimiy qilib kiritilgan. O‘yinlar uchun nonushtagacha va undan keyin, mashg`ulotlardan so‘ng, sayrlardan so‘ng, kechqurun uyga ketishdan oldin vaqt ajratiladi. Ertalab o‘ta harakatchanlikni talab qilmaydigan o‘yinlar uchun sharoit yaratish maqsadga muvofiqdir. Mazmunan ko‘proq didaktik o‘yinchoqlar, stol ustida o‘ynaladigan stol-bosma o‘yinlari, syujetli-rolli o‘yinlarni o‘ynagan ma`qul. Sayr davomida harakatli o‘yinlarni, qurish-yasash oyinlarini tashkil etish foydalidir. Kun tartibida o‘yin uchun maxsus vaqt belgilash o‘yining

mustaqil faoliyat sifatida mavjud bo‘ishining va uni bolalar hayotini tashkil etish shakli sifatida, tarbiya vositasi sifatida qo‘llanilishining eng muhim pedagogik shartidir. Bolalar o‘yining o‘ziga xosligi shundaki, u tevarak-atrofdagi hayotni, kishilarning faoliyati, ishlari, harakatlarini, ularning ish jarayonidagi o‘zaro munosabatlarini aks ettiradi.

Tadqiqotchi A.V. Yarmolenko yarim yoshlik go‘daklarda jozibali narsalarning o‘zaro qiyosiy tasnifini tadqiq qilgan. Muallif olgan ma’lumotlarga qaraganda go‘dak behisob jismlar orasida insonni (katta yoshli odamlarni) tobora aniqroq, ravshanroq ajrata boshlagan. SHu bilan birga harakatsiz ko‘rvu qo‘zg‘atuvchisiga diqqatni to‘plash 26 sekunddan 37 sekundgacha harakat qilmayotgan odamga bolaning tikilishi, 34 sekunddan 38 sekundgacha, xarakatdagi ko‘rvu qo‘zg‘atuvchisiga qarashi 41 sekunddan 78 sekundgacha, harakatdagi insonga e’tibor berishi 49 sekunddan 88 sekundgacha ortgan. Tajribada go‘dakning xarakatlanayotgan odamga diqqatini to‘plab turishi 4 marotaba ortgani aniqlangan.

Go‘dak jonsiz narsalarga qaraganda odamga diqqatini barqaror qaratishi uning kattalarga munosabati o‘zgaganidan emas balki ular bilan aloqaga kirishganda sust retseptor o‘rnini faolrog‘i egallaganidandir. Go‘dakda fazoviy tassavvurning boyishida jumlalarning idrok qilishidagi farqlashning takomillashuvi muhim vosita xisoblanadi. Hayot tajribasi ortib borishi mashqlar natijasida jismlarning alomatlari va belgilarni o‘quvi paydo bo‘ladi.

Olimaning fikricha 3-oydan 6 oylikkacha bolada katta yoshdagi odamlar bilan tanlab munosabatda bo‘lishi vujudga keladi. Uch oylik go‘dak begonalar orasidagi tuqqan onasini ajrata olsa, yarim yoshdan boshlab esa begonalar ichidagi qarindoshlarini ham farqlay boshlaydi. M.Yu. Kistayakovskaya ma’lumotiga ko‘ra, 5-6 oylikda u muomala qilayotgan notanish shaxsga bir oz tikiladi, keyin yo kulimsiraydi yoki undan yuzini o‘giradi, xatto, qo‘rqib yig‘lab yuboradi. Bolada o‘zini parvarish qilayotgan yaqin kishilariga bog‘lanib qolishi sodir bo‘ladi. Ana shu sababli onasini yoki enagasini ko‘rsa qiyqirib qarshilaydi, unga talpinadi, qo‘l-oyog‘ini ixtiyorsiz tipirchilatadi. U yarim yoshga to‘lganda atrofdagi yaqin kishilari, qarindosh-urug‘lariga, xatto qo‘ni -qo‘shnilarga ham bog‘lanib (o‘rganib) ko‘nikib qoladi. Ta’minan 8-9 oyligidan kattalar bilan dastlabki o‘yin faoliyatini boshlaydi.

O‘yin faoliyatidagi tabassum, jonlanish, shodlik, tuyg‘ulari avval faqat kattalar ishtirokida namayon bo‘ladi, vaqt o‘tishi bilan uyinning o‘zi bolaga quvonch bag‘ishlaydi. Go‘dak bir yoshga yaqinlashgan sari kattalarning xatti-xarakatlarini izchil kuzatishdan tashqari unda asta-sekin ularning ko‘mak berish ishtiyobi tug‘iladi. Natijada bola individual faoliyat turidan hamkorlikdagi faoliyatga ham o‘ta boshlaydi. Ma’lum, hamkorlikdagi faoliyat muloqot ko‘lamini kengaytirishga yordam beradi.

Maktabgacha tarbiya davri shaxsning xaqiqiy tarkib topishi (voyaga etish) davri bo‘lganligi uchun ham shunday muhim bir davrdir. Hayotning birinchi yili mobaynida

bolaning tevarak -atrofdagi muhitga munosabati jiddiy ravishda o‘zgaradi. Bola kattalar bilan aloqada bo‘lishi natijasida uning o‘rgatishga qarab o‘z ixtiyorlarini qondiradigan narsa bilan mustaqil xarakat qila boshlaydi. Dastlab u kattalar bilan birgalikda, so‘ngra ularning raxbarligida xarakat qiladi, undan keyin ovqat eyish bilan bog‘liq bo‘lgan xarakatlarni va o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatishga oid ishlarni mustaqil bajara oladi. Hayotning 2 yilida kattalar bilan munosabatlarda o‘zgarish ro‘y beradi. Maktabgacha tarbiya yoshida bola katta odamni o‘z xulqi-atvori uchun o‘rnak deb xisoblaydi. Bola 1-yoshdan 3- yoshgacha narsalar, bilan xarakatlar qilishni egallaydi o‘yin bolaning xarakatlarini rivojlantirish va takomillashtirishga yordam qiladi. Maktabgacha tarbiya yoshida bola faoliyatining xilma-xil turlari o‘yin, mexnat rejimini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat rivojlanana boradi. 2 yoshdan boshlab bolalar o‘ynaydigan bo‘lishadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning (4 yoshdan boshlab) etakchi faoliyatlarga bo‘lib o‘ynaladigan, ijodiy o‘yindir. O‘yin jarayonida bola muayyan rollarni bajarishni o‘z zimmasiga olishadi hamda o‘yin sharoitida odamlar faoliyati va munosabatini esga keltirishadi. 3-4 yashar bolalarda birgalikda o‘ynaladigan o‘yinlar xali bo‘lmaydi. Dastlab buyum, o‘yinchoq rolъini go‘yo esga solganday bo‘ladi, sungra bola o‘yinda ixtiyoriy suratda o‘z zimmasiga ma’lum rolъni oladi. Maktabgacha tarbiya yoshida bolaning kattalar tomonidan uyuhshtirilib, muayyan maqsadga qaratilgan ijodiy faoliyati uning taraqqiyotga qancha ta’sir ko‘rsatadi. 2-yoshda bola rasm sola boshlaydi va jon dil bilan rasm soladi. Rasm solish jarayonida uning idrok etishi aniqlashda u buyumning rangi va shaklini yaxshiroq ajrata boshlaydi, kuzatuvchanligi rivojlanadi. Bola tasavvurlayotgan narsani o‘xshatish maqsadida rasmda aks ettirish zarur bo‘lgan narsalarning belgilarini ataylab ajratib ko‘rsatadi.

Bola rasm solar ekan, rasmni so‘zlar bilan to‘ldirib, faollik bilan xarakat qiladi, u o‘z tassavvurlari asosida keyinchalik katta yosh odamlarning so‘ziga binoan rasmlar yaratmog‘i mumkin-unda ayrim narsalarning obrazlari vujudga keladi. Rasm solish bilan loy va plastiklardan shakllar yasaydi, natijada, bola analizatorlarining rivojlantirishda hamda moslashgan va differensiyallashgan xarakatning tarkib topiishidan tashqari uning narsa shaklini, xajmini, bir o‘lchovda bo‘lishi va munosabatligini idrok etish takomillasha boradi. 3-4 yashar bola narsalar o‘rtasidagi bog‘lanishni farqlab oladi va o‘z faoliyatini planlashtiradi, bu faoliyat asta-sekin ijodiy faoliyatga aylanadi

Ilk yoshli bolalar o‘yin faoliyatining birinchi bosqichi tanishtiruvchi o‘yin bo‘lib, u narsa-buyum-o‘yin faoliyatidir. Uning mazmuni qo‘l ishidagi murakkab va nozik harakatlardir.

Keyingi bosqich aks ettirish o‘yini hisoblanadi. Bu ilk yoshli bolalar o‘yini psixologik mazmunining rivojlanishida eng yuqori nuqta hisoblanadi. Kattalar ta`lim-tarbiyaviy ishlarini

ma`lum izchillik bilan olib borsalar, bu yoshdagi bolalar narsa va buyumlar nomini, nimaga ishlatilishini bilib oladilar va bu yangi bilimlarni o`z o`yinlarida qo`llay boshlaydilar.

Bu yoshdagi bolalar o`yini mazmuni jihatidan predmetli faoliyatni aks ettiradi.

Birinchi yoshning oxiri va ikkinchi yoshdagi bolalar o`yinida syujetni aks ettirish yuzaga keladi. Bola qo`lidagi buyum bilan undan qanday foydalanish keraqligini aks ettiradi.

Navbatdagi bosqich rolli o`yin bo`lib, unda bolalar o`zlariga tanish bo`lgan kattalar mehnati va qishilarning ijtimoiy munosabatilarini aks ettiradilar.

Bolalar o`yin faoliyatining bosqichma-bosqich rivojlanishi to`g`risidagi ilmiy tasavvurlar har xil yosh guruhlarida bolalarning o`yin faoliyatiga rahbarlikning aniq sistemali tavsiyalarni ishlab chiqish imkoniyatini yaratdi.

XULOSA

Shunday qilib MTMning pedagogik jarayonda o`yining tutgan o`rni juda katta bo`lib, o`yindan maktabgacha yoshidagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta`lim berishda keng foydalilanadi.

Zero:

- o`yin bolalarning mustaqil faoliyati bo`lib, unda bolaning ruhiyati namoyon bo`ladi;
- o`yin maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar hayotini tashqil etish shaklidir;
- o`yin bolalarni har tomonlama tarbiyalash vositalaridan biridir;
- o`yin bolalarga ta`lim va tarbiya berishning metod va usulidir;
- o`yin bolalarni o`quv faoliyatiga tayyorlash vositasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Qodirova F.R., Qodirova R.M. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: «Istiqlol», 2006.
2. “Ilk qadam” davlat o`quv dasturi O`zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta“lim vazirligining 2018-yil 7-iyuldagи 4-sonli hay“at yig,,ilishi qarori bilan tasdiqlangan va nashr etilgan dasturi.
3. Г.И.ХАСАНОВА “Таълим жараённида дастурлаштирилган ўқитиши технологиясидан фойдаланишнинг афзалликлари” Жиззах: 2020. 420 бет. 223- 2256
4. Хасанова, Г. (2021). Олий таълим муассасалари педагогарининг Креатив қобилиятларини ривожлантиришнинг мазмуни. Academic Research in Educational Sciences, 2(1), 778-782
5. М.Усмонова . Ўқувчи шахсига йўналтирилган педагогик технологиялар Таълим технологиялари. 2016 йил. 4-сон